O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI INV. №

«Suv – mo'jiza» tanloviga

BOBOMDAN O'RGANDIM

Bir kuni bobom bilan yo'lda ketayotgandik, krandan suv oqib yotganiga ko'zimiz tushdi. Shunda bobom jo'mrakni yopib kelishimni buyurdilar. So'ngra, suvni isrof qilmaslik kerakligini uqtirdilar. Men bebaho ne'matni tejashni bobomdan o'rgandim.

O'g'iloy OMONOVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi
1-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

HAR SONINI O'QIYMIZ

Men «Tong yulduzi» sahifalaridagi tengdoshlarim ijodidan ilhomlanib, she'rlar mashq qilib turaman. Menimcha, bu gazetani o'qib, ijodkor o'quvchilar ko'payib bormoqda. Shuning uchun butun sinfimiz bilan unga obuna bo'lmoqchimiz.

Gavhar SHUHRATOVA,
Navoiy viloyati, Nurota shahridagi
18-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi

XANDA YOZDIM BIR QIZIQ!

Sevimli gazetamizdagi «Quvnoq tanaffus» sahifasini katta tanaffusda mazza qilib o'qib boryapmiz. Men ham bu sahifaga qiziq bir hangoma yozib yubordim. Tengdoshlarimga ma'qul bo'ladi, degan umiddaman. Gazetani muntazam o'qib borish maqsadida kelasi yil uchun ham obuna bo'ldim. Siz-chi, obuna bo'lishga ulgurdingizmi?

Munisa KARIMOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
5-maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil 24-noyabr N:47 (66692)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan ISSN – 2010-6092

KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ POYDEVORI

Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan respublika ko'rik-tanlovining shahar bosqichi ana shunday shior ostida o'tdi. Tadbirda shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli barcha maktablarning bilimdon, zukko o'quvchilari qatnashib, huquqiy bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazishdi. Talabchan hakamlar hay'ati a'zolari o'quvchilar yozgan bayon va insholarni tahlil qilishdi. So'ngra, Bosh qomusimiz va uning alohida modda va boblariga oid tasviriy san'at asarlari, fotoalbomlar tanlovi bo'lib o'tdi.

Tanlov natijalariga ko'ra, 2-maktab o'quvchilari g'olib deb topilib, shahar XTBning «Faxriy yorliq»lari bilan taqdirlandilar.

«EKOSAN»DA YANA BIR TADBIR

Bolalar, yurtimizda «Ekosan» Ekologiya va salomatlik xalqaro tashkiloti mavjudligini yaxshi bilasiz. Uning atrof- muhit, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda inson va tabiat munosabatlaridagi xayrli ishlaridan xabardor ekanligingiz bizni quvontiradi. Chunki Siz «Ekosan»ning ezgu maqsaddagi loyihalarida faol qatnashib kelyapsiz.

Yaqinda poytaxtimizning Toshkent Davlat sirki binosida o'tkazilgan «Biz – Orol bolalariga!» shiori ostida tashkillashtirilgan xayriya ekofestivalida o'z ijodiy ishlaringizni namoyish etishingiz Orolbo'yida yashovchi do'stlaringiz uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.

BIR KUNNING QUVONCHI

«Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan navbatdagi xayriya tadbiri bemor bolalarga mehr- muhabbat ulashdi.

Qandli diabet kasalligi bilan davolanayotganToshkent viloyati va shahridagi bolajonlarga jamg'armaning navbatdagi sovg'alari ularga bir lahza bo'lsa-da, shodlik bag'ishladi.

«Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar» (2008-2009) dasturi sovrindorlari safida A.Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibasi Nazokat Tojiboyeva ham bor.
(U haqidagi maqolani 8-betda o'qiysiz)

Orbitada mehmonxona — 2-bet
Zamonaviy o'quvchilar — 3-bet
Yurakka yaqin so'z — 4-5-bet

Tengdoshlarim hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'laman, sevimli adiblarimizning yangi asarlarini birinchilardan bo'lib o'qiyman, «Quvnoq tanaffus»dagi hangomalarni o'qib, vaqtimni chog' o'tkazaman, o'z ijodimni olisdagi do'stlarimga yetkazaman

DESANGIZ,
TEZROQ «TONG YULDUZI» GAZETASIGA OBUNA BO'LING!

Nashr ko'rsatkichimiz: 198

1. *«Eng namunali Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.*
2. *«Eng namunali tuman xalq ta'limi bo'limi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.*
3. *«Eng namunali maktab, litsey, kollej»ga 6 ta sovrin: 3 dona televizor, 3 dona magnitofon.*

Bugungi partadoshimiz ham erta-indin zamonamiz qahramoniga aylanishi mumkin

KOMILLIKKA ERISHING

Siz yoshlarni barkamol avlod, deyishadi. Lekin siz komillik deganda nimani tushunasiz? Bu haqda kitoblardan o'qib o'rganishingiz kerak. Bilasizmi, komillikning dastlabki belgilaridan biri go'zal xulq-atvorli bo'lishdir. Endi o'ylab ko'ring, siz maktabda, jamoat joylarda va ota-onangiz qoshida o'zingizni qanday tutmoqdasiz? Axir sizni kelajak, Vatan kutmoqda! Siz unga munosib barkamol avlod bo'lishingiz kerak.

U.TURIMOVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
249-maktab o'qituvchisi

YUNUS OBOD ETGAN YURT

Tumanimizga nima uchun Yunusobod nomi qo'yilganligiga doim qiziqardim. Bir kuni mahallamizdagi keksa otaxondan bu haqda so'rab ko'rdim. Ularning aytishlaricha, ilgari bu yerlar qarovsiz bo'lgan ekan. So'ng, Yunus ismli bir dehqon bu joylarni obod qilibdi. Va hudud shu insonning nomi bilan atala boshlanibdi. Manbaalarda esa bu yer 1917-yildan keyin tashkil topganligi haqida ma'lumotlar bor. 1919-yilda taxtapullik kosib Yunus degan kishi o'sha joyda chayla qurib, atrofdagi bo'sh yerlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik ko'pgina taxtapulliklar ko'chib kelishgan. Akademik Bo'riboy Ahmedovning fikricha, 1784-yili Toshkent hokimi Yunusxo'ja bu joylarni obod qilgani sababli uning nomi bilan tumanimiz Yunusobod deb atalgan ekan.

Nargiza MURODOVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov
akademik litseyi

ORBITADA MEHMONXONA

XXI asr texnika asri deb atalmoqda. Chunki fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Hatto 2012-yilda ispaniyalik olimlar orbitada birinchi mehmonxona ochishni loyihalashtirishibdi.

Taniqli arxitektor Ksave Klaramun bu mehmonxonani qurish uchun 3 milliard fund miqdorida mablag' kerakligini hisoblabdi.

Yer yuzidagi qirq ming nafar inson ushbu mehmonxonaga safar qilishni orzu qilishibdi.



Maftuna RAHMONBEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Nafis san'at litseyi
o'quvchisi

O'QIB, UQIB BORAYLIK

Bugungi kunda yurtimiz yoshlarining o'qib-o'rganishlari, hunarli bo'lishlari, sport bilan shug'ullanishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarga havas qilsa arziydi. Biz «Yoshlar yili» bergan imkoniyatlardan behad mamnunmiz. Ulardan unumli foydalanib, maktab partasidanoq puxta bilim olishimiz, shuningdek, huquqiy bilimlarimizni ham boyitib borishimiz lozim. Inson o'z haq-huquqlarini bilib borsa, hayotda sira qoqilmaydi.

Men kelgusida huquqshunos bo'lmoqchiman. Shuning uchun ham baxtimiz qomusi bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasining har bir satrini yoddan bilishim, bob va moddalarini o'qibgina qolmay, uqib borishim lozim.

Hademay xalqimizning qutlug' bayrami – Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunni keng tantana qilamiz. Barcha yurtdoshlarimiz qatori biz yoshlar ham bu sanani munosib kutib olishga qizg'in hozirlik ko'ryapmiz.

Aziza ISMOILOVA,
Toshkent Davlat yuridik instituti
2-bosqich talabasi

HUNARINGIZ BORMI?

Bugun biz yoshlarning hunar egallashimiz uchun qanchalik imkoniyat yaratilayotganini tengdoshlarim yaxshi bilishadi. Lekin hammamiz ham hunar egallayapmizmi? O'qituvchimiz aytganlaridek, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida qanchalik bilimli va hunarli bo'lsak, ko'p yutuqlarga erishishimiz mumkin ekan. Demak, maktabdan keyin bo'sh vaqtlarimizda biror to'garak yoki o'quv kurslariga qatnashaylik. Opamning aytishlaricha, qiz bolaning hunari, ayniqsa, kelinchak bo'lganida bilinar ekan.

Shohsanam RAHIMOVA,
Toshkent Davlat pedagogika
instituti talabasi

YOSH ASKARLAR QASAMYODI

Davlatimiz bayrog'i to'g'risidagi qonun qabul qilingan kunni bilasiz-a? Axir har yili 18-noyabrda maktabingizda bu sana alohida nishonlanadi. Chunki davlat ramzlarini har bir o'quvchi yaxshi bilishi kerak-da! Ayniqsa, yosh askarlar turli tantanalarda baland ko'targan bayroqning mazmun-mohiyatini tushinishlari lozim. «Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasida maxsus harbiy maktab tashkil etilgan. Bu ta'lim maskani boshqa maktablardan farq qilishini bilasizmi? Bu maktab o'quvchilaridan alohida jismoniy tayyorgarlik va qat'iy tartib-intizomga rioya qilish talab etiladi.

Yaqinda mayor Mirkamol aka Jalolov rahbarlik qilayotgan maxsus maktab-internat kursantlari qasamyod qabul qilishdi. Ular Vatanimizni, uning sarhadlari-yu ramzlarini doimo ardoqlab, himoya qilishga va'da berishdi.

Nasiba OCHILOVA

ZAMONAMIZ QAHRAMONI BO'LAYLIK

Bolalikda har birimiz ertak qahramonlariga havas qilamiz. Tezroq katta bo'lib, ular kabi zo'r ishlarni amalga oshirgimiz keladi. Yoshlik esa buning uchun ayni payt, imkoniyatdir. Bugungi partadoshimiz ham erta-indin zamonamiz qahramoniga aylanishi mumkin. Chunki imkoniyatlarimiz kundan-kunga ortib bormoqda. Hali qarasangiz, kimdir respublika tanlovining g'olibi, yana bir tengdoshimiz Xalqaro olimpiadaning oltin medal sohibi. Shunday o'qib izlansak, bugunning qahramoniga aylanishimiz mumkin. Axir ertak qahramonlari ham kuchli bo'lganliklari uchungina emas, ustozlaridan olgan saboqlaridan qiyin vaziyatlarda foydalanib, baxt-saodatga erishadilar. Siz-chi, aziz tengdoshim, ertaga kim bo'lmoqchisiz? Shunga qarab harakat qiling.

Musharraf MUHAMMADIYEVA,
Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi
34-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi

QO'LNI

Qo'l – inson tanasining eng faol a'zolaridan biri. Inson juda ko'p harakat va yumushlarni qo'li bilan bajaradi. Shu bois, biror ish bajarishga nisbatan ham «qo'lidan keladi» yoki «qo'lidan kelmaydi», deb sifat beriladi. Umuman, inson qo'li buyuk ishlarga qodir. Shoir e'tirof etganidek: «Mudom mehnat uchun paydo shu qo'llardir, shu qo'llardir».

Qo'lga nisbatan «oltin qo'llar» iborasi ham ishlatilgan. Ha, oltin, kumush o'z-o'zicha mukammal narsa emas, ulardan ajoyib bezak-buyumlar yasovchi oltin qo'llar kerak.

Mana shunday bebaho a'zomiz – qo'l bilan bog'liq bir

Shamchirog'im – bolajonim, so'zlari bolim, ham izzatim, ham ikromim, izlari borim...

ZAMONAVIY O'QUVCHILAR

Ayrim qizlarimiz maktabga qo'llariga qo'sha-qo'sha uzuklar, bo'ynilariga esa marjon taqinchoqlar taqib kelishadi. Buni ko'rgan tengdoshlari ularda ham ana shunday taqinchoqlar bo'lishini xohlaydilar va ota-onalariga xarxasha qiladilar. Qaysi qiz zeb-ziynatni yoqtirmaydi deysiz?

Maktabga qo'l telefoni ko'tarib kelayotgan o'quvchilarni aytmaysizmi?

Dars paytida jiringlab qolgan telefon dars o'tayotgan o'qituvchining xayolini buzadi, o'quvchilar fikrini chalg'itadi. Qo'l telefonidagi bo'lar-bo'lmas videolar xayolini o'g'irlaydi, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini susaytiradi. Ba'zi tengdoshlarimizning maktabga formada emas, o'ta zamonaviy kiyimlarda kelishlari ham maktabdoshlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun emas, qimmatbaho kiyimlarini, taqinchoqlarini ko'z-ko'z qilish uchun keladigan o'quvchilar ham yo'q emas oramizda. Bu o'quvchilarning ota-onalari qayerga qaraydilar? Farzandlarini maktabga emas, to'y-u tantanaga yuborayotgandek, go'yo. Ular farzandlarini yoshligidan boylikka, o'z nafsining quli bo'lib qolishga o'rgatmay, mehnatni sevishga, ilm olishga o'rgatsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi. O'shanda farzandlari komil inson bo'lib yetishadi. Zamonaviy bo'laman, deb milliy qadriyatlarimizni, ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlarni unutib, o'zga millat urf-odatlariga sho'ng'ib borayapmiz. Yevropaga taqlid qilyapmiz.

Buning nimasi yomon, desangiz kerak?! Bir tomondan olib qaraganda, boshqa xalqlarning odatlari, an'analari, tarixi, madaniyatini o'rganaylik, lekin o'zligimizni unutib qo'ymaylik, aziz o'quvchilar!

Muxlisa AZIMOVA,
Toshkent yuridik kolleji talabasi

Yayra SA'DULLAYEVA

SHAMCHIROG'IM

Yurak larza bilan urmoqlikni istaydi bir dam. Bu larzada ummonlarning kuchi bor, go'yo. Soch oqargan. Qadamlarning o'lchovi aniq. Lekin... yurak mehrin hadya etmish shamchiroqlarim.

Shamchiroqlarim...

Shamchirog'im – bolajonim, so'zlari bolim, ham izzatim, ham ikromim, izlari borim. Senikidir umidlarim, bugunim, ertam. Senikidir qadriyatim va quvonchlarim. Bu ne baxtkim, allomalar ajdodidursan. Avlod bo'lmoq mas'uliyat. Uni oqlamoq... Talab etur zo'r jasorat va katta jur'at.

Kel, azizim, shamchirog'im, chin shamchiroq bo'l! Senga berdim sochlarimning qarosini men. Senga berdim ko'zlarimning dur jilosini, yurakdagi haroratim, farog'atimni. Istiqlolning nurli yo'li senga keng ochiq. Shu poyondoz uzra yurgin, hech qoqilmagin!

Ha, bolajon, umidlarim senga boqmishdir. Yurt yukini ko'targuvchi sen o'zing bo'lgin. Rizodurmen shu Vatanga sodiq bo'lsang sen. «Sodiq» so'zi sadoqat va fidoyilik. Bu bir jo'shqin muhabbatdir, el muhabbati. Bu muhabbat kirmish sen tomirlaringga!

Bolajonim, sarhadlarni yayov kezgin, osmonlarni quch. Ham qush bo'lgin, ham sher bo'lgin shu tuproq uchun! Shu oltin-u, hatto tomchi va yaproq uchun! Men esa tinch, sokin bo'lay qo'riqchim bor deb. Shu niyatim – Yaratgandan senga baxt tilay. Ona yurtga to'kinlig-u tillo taxt tilay.

Ana, bolajonim, hurriyatning mayin shamoli yuzlarimni silamoqda. Sening mayin qo'llaring yuzlarimni silamoqda.

TASHLANG!



hikoyatni so'zlasak:

Bir kishining ikki o'g'li bo'lib, bisotida ikki qayiq, birgina kema ekan. Kemani qaysi biriga ps qoldirishni bilmay, boshi lbdi. Keyin o'ylay-o'ylay g'illariga shart qo'yibdi. «Qaysi biringiz kemaga birinchi qo'l tekkizsangiz, kema o'shaniki bo'ladi», debdi u. O'g'illari o'zini suvga otib, kema tomon qayiqda suza boshlabdi. Katta o'g'li ilgarilab, mo'ljalga yaqinlashibdi. Shunda kenja o'g'il bir tadbir qo'llabdi. U pichoq bilan bir qo'lining barmog'ini kesib irg'itibdi. Barmoq borib kemaga tegibdi. Shu tariqa u shartni birinchi bajarib (qo'li kemaga tegib), unga egalik qilgan ekan. Kenja o'g'il aql bilan tadbir qo'llab, merosga erishgan, lekin barmog'idan ajralgan. Biz uni muhokama qilmoqchi emasmiz. Bu balki uning o'zi uchun muhumdir.

Biroq, biz uchun boshqa bir xulosa muhum: hech qanday buyum boylik, barmoq tugul tirnoqqa ham arzimasligi mumkun. Qo'ldan ajrab, bir narsaga erishguncha, o'sha narsani qo'l bilan yaratish, mehnat-mashaqqat chekib qo'lga kiritish yaxshiroq emasmikan?! To'g'rimi, ha, yashang, qo'lni tashlang.

Sherzod RAJABOV,
O'zDJTU qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi

«Katta bobo» bekati

EZGULIK NURI



Aziz bolajonlar!

Bugun bekatimizda ezgulik xususida suhbatlashsak, nima deysiz? Xo'sh, qani ayting-chi, birovga yaxshilik qilishning o'zi nima? Uni siz qanday tushunasiz? Kimgadir biron marta yaxshilik qilganmisiz? Sezib turibman, o'yga toldingiz. Balki shu damda kimgadir yaxshilik qilish xususida xayolga tolgan bo'lsangiz, ne ajab.

Aslini olganda, yaxshilik qilish uchun unchalik jon kuydirish shart emas. Birovga to'g'ri gapirish, uning ko'nglini ko'taradigan biron yumish qilish yoki bo'lmasa, og'irini yengillatish ham aslida ezgulikka kiradi. Afsuski, orangizda buni o'z vaqtida anglab yetmaydigan, o'zidan boshqani hurmat qilmaydigan ayrim tengdoshlaringiz topilib qolishi mumkin. Bilaman, siz undaylardan emassiz. Sizning ko'nglingiz do'slaringizga har doim ochiq. Yoshi ulug'larga shirin muomalada bo'lish, ularning aytganini bajarish, gapini ikki qilmaslik, maktabda yaxshi o'qib, ko'cha-ko'yda odobli bo'lishga harakat qilasiz. Shunga aminmanki, siz bunga qodirsiz. Chunki sizning ko'nglingiz ezgulik nuri bilan to'lgan. Boz ustiga, sizning qalbingiz yaxshi odamlarga tashna.

Azaldan ota-bobolarimiz bizga odobli, axloqan pok inson bo'lib kamol topishni uqtirib kelishadi. Aslida buning uchun ko'p narsa talab etilmaydi. To'g'ri yurib, binoyidek kiyinish, a'lo baholarga o'qish ham milliy qadriyatimizga kiradi.

Agar siz kelajakda har tomonlama komil inson bo'lishni istasangiz, bolalikdan dilingiz beg'ubor bo'lishiga harakat qiling. Qo'lingizdan kelsa, yaqin kishilarga, hatto umuman begonalarga ham yaxshilik ulashing. Bu dunyoni qaytar dunyo deyishganidek, siz bugun nima qilsangiz, bir kuni o'zingizga yo'ldosh tutsangiz, umringiz mazmunga boy bo'lishga shubha yo'q. Modomiyki, baxillikka ruju qo'yib, faqat o'zim bo'lay deyishga odatlansangiz, unda ko'p narsaga erishmaslik mumkin.

Jajji o'g'il-qizlarim, bu gaplarimni balandparvoz so'zlar sirasiga qo'shmang. Ularni men ham o'z vaqtida bot-bot eshitganman. Har gal ularning ma'nosini anglashga, iloji boricha amal qilishga harakat qilardim. Tan olishim lozimki, shunday yo'l tutib, aslo adashganim yo'q. Shu bois, dildagi gaplarni hukmingizga havola qilarkanman, ulardan o'zingiz xulosa chiqarasiz, degan umiddaman:

Birovni besabab yomonotliq qilma, bu hol seni beburd qilib qo'yadi.

Odobli odam hech qachon ko'krak kerib maqtanmaydi.

O'zini dono deb bilganlardan har doim aqlli fikr chiqishi amri mahol.

Ezgulikning hech qachon kechi bo'lmaydi, ammo yomonlik har doim bemavriddir.

Islom USMONOV

YURAKKA YAQIN SO'Z

Yusuf MUHAMMADIYEV, Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining birinchi o'rinbosari. U ilk faoliyatini poytaxtdagi maktabda boshlagan. Maktab rahbari, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri, hatto hokim o'rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Hayotning juda ko'p katta imtihonlarini boshidan kechirgan ustoz bilan suhbatlashganimizda, u kishi bizlarga ma'naviy- ma'rifiy ishlar haqida to'lqinlanib, quyidagilarni so'zlab berdilar.

Bolajonlar, xalqimiz Samarqandni sharq gavhari, deya qiyoslashlari bejiz emas. Darhaqiqat, bilagida kuchi, jismi- jonida g'ayrati va shijoati bor insonlar el- yurt manfaati yo'lida xizmat qiladi. Respublikamiz viloyatlarini kezar ekanmiz, u yerdagi ijodkorlik va bunyodkorlik ishlaridan dilimiz yayradi.

Yaqinda biz – tahririyat xodimlari Jizzax va Samarqand viloyatlarida xizmat safarida bo'ldik.

Samarqand tuprog'ining har bir zarrasida ulug' bir hikmat bor, deganlari rost. O'zining boqiy qadriyatlari, bebaho boyliklari bilan dunyoga mashhur azim shahar – Samarqandda ona Vatanimizning chindan ham faxrga arziguli o'rni bor. Ajdodlar ruhi doimo madadkor, betakror bu shaharda hamisha ko'rk-u tarovat, beqiyos go'zallik mujassam.

BOBOLAR IZDOSHLARI

– Azal-azaldan Samarqand go'zalligi bilan dovrug' qozongan. Mustaqillik yillarida viloyatimiz yana-da ko'rkamlashdi. Tarixiy obidalar tiklandi. Iqtisodiy salohiyati yuksaldi. Yangi-yangi maktab, litsey va kollejlarning qad rostlashi yoshlarni ruhlantirdi.

Ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunday burchlarni ado etishda, albatta, ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos.

Ayni paytda viloyatimizdagi 1216 ta umumta'lim maktablarida Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, tarixga hurmat, ilmga mehr berish borasida ko'plab ko'rik-tanlovlar, suhbatlar, uchrashuvlar o'tkaziladi.

«Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida Samarqand shahridagi 64- maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Shahlo Sharipova insho yo'nalishida birinchi o'rinni egalladi. Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyatini anglashda Bulung'ur tumanidagi 42- maktab o'quvchilari birinchi o'rinni oldilar. Shu yo'nalishdagi eng yaxshi tasviriy vositalarni ifodalagan Jomboy tumanidagi 46- maktab o'quvchisi Nilufar Abirqulova 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tadbirlarimizda nafaqat o'quvchilar, balki ustozlar ham faol qatnashadi. Yaqinda «Samarqand tarixini bilasizmi?» ko'rik-tanlovida Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalari mudiralari g'olib bo'lishdi. Bunday raqamlarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Samarqandning buyuk bobolari Amir Temur, Mirzo Ulug'bek boshlagan ezgu ishlarni davom ettirish bizga hamisha faxr tuyg'usini yuklaydi.

VATAN MEHRI

Bolalikda chopar edim yalangoyoq,
Oyog'imni tilib o'tdi chaqir tikon.
Og'rir edi, bezillardi, chidolmasdim,
Tuproq olib sepgan edim, to'xtadi qon.

Bolalikda chopar edim yalangoyoq,
Tosh ko'chami yo chang ko'cha, tanlamasdim.
O'shal paytlar jarohatim malhamini
Tuproq menga vatanligin anglamasdim.

Asliddin MUSTAFOYEV,
SamDU, filologiya fakulteti talabasi

FIBO'B – IQTIDORLILAR O'YINI

FIBO'B nima ekan, deb o'ylayapsizmi? U fanlardan iqtidorli bitiruvchi o'quvchilar bellashuvidir.

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining buyrug'i hamda «Yoshlar yili» munosabati bilan umumta'lim maktablarida FIBO'B an'ana tusini olgan. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, tarix va milliy istiqlol g'oyasi, informatika fanlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida iqtidorli bitiruvchi yoshlar o'zaro bellashadi.

G'olib o'quvchi jamoasi viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, viloyat «Nuroniylar» jamg'armasi, «Kamolot» YOIH hamda viloyat «Mahalla» jamg'armasi tomonidan maxsus diplom, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadilar. «Yilning eng iqtidorli o'quvchilar jamoasi» degan nominatsiyani qo'lga kiritadilar. G'olib jamoaning ustozlari esa O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi bo'ladi.

INSHOLAR TANLOVI

Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan o'tgan 2007-2008-o'quv yili davomida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 107 ta umumta'lim maktablari, jumladan, 4 ta yangi qurilish, 47 ta kapital rekonstruksiya, 54 ta kapital va 2 ta maktabni joriy ta'mirlash rejalashtirilgan bo'lib, barcha umumta'lim ob'yektlarida qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlandi. Yangi o'quv yilida esa kuz va qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha reja ishlab chiqildi. Viloyat maktablari amaliyotchi-psixologlari tomonidan o'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlari aniqlanib, «Qiziqishlar xaritasi» kabi psixologik tashhis o'tkazilib, natijalari Respublika tashhis Markaziga taqdim etildi. «Kelajakdagi kasbim» mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovida Jizzax, Zarbdor, Paxtakor tumanlari 9-sinf bitiruvchilari tomonidan yozilgan insholar g'olib deb topildi.

Safarimiz davomida yuqorida keltirilgan tumanlarda bo'lib, maktab direktorlari bilan ish faoliyatlari va rejalari borasida suhbatlashdik:

Abdumutal ERGASHEV,
Zarbdor tumanidagi Obloqul Meliboyev nomli 3-o'rta maktab rahbari:

– Maktabimizda 1937 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Ularga 126 nafar o'z kasbining fidoiy o'qituvchilari saboq beradi.

Hozircha «Tong yulduzi» gazetasiga 50 dona obuna bo'ldik. 67 ta sinfimizning har biriga ushbu nashr kirib boradi, deb ayta olaman.

Komil O'ROLOV, Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi 1-ixtisoslashgan maktab direktori:

– Maktabimiz ijtimoiy-gumanitar hamda aniq fanlarga ixtisoslashgan. Har yili iqtidorli o'quvchilar saralanib, 6-sinfdan imtihon asosida o'qishga qabul qilinadilar. Ayni kunda 228nafar o'quvchiga oliy toifali o'qituvchilar saboq berib kelmoqdalar. 2007-yilda maktabimiz kapital rekonstruksiya qilindi. Mustahkam bilim olishlari uchun o'quvchilarga barcha sharoitlar yaratib berilgan. Hozirda o'quvchilarimiz Pentium IV komyuterlaridan bemalol foydalanmoqdalar. Iqtidorli o'quvchilarimizdan 11-sinf o'quvchisi Yulduz Ergasheva huquqshunoslik bo'yicha Respublika olimpiadasida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Ana shunday iqtidorli, qobiliyatli o'quvchilarimiz yutuqlaridan faxrlanamiz. Bundan keyin ham iqtidorli o'quvchilarimiz ustozlari berayotgan bilimlarini oqlab, oliy natijalarga erishadilar.

Xo'jam BEKAMOV,
Zarbdor tumanidagi Sharof Rashidov nomli 1-maktab rahbari:

– Maktabimiz o'tgan yili ta'mirdan chiqdi. Ayni paytda o'quvchilarimizning yangi dargohdagi orzulari ham yangicha. O'quv muassasamizda 1294 nafar o'quvchilar saboq oladi.

O'quvchi-yu o'qituvchilarimiz maktabda ijodiy muhitni rivojlantirishda faol. Sportchi bolalarimiz esa har yili Respublika chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashadi. Yaqinda taekvondo sport turi bo'yicha o'quvchilarimiz g'oliblikni qo'lga kiritishdi.



D i l f u z a SUYUNOVA,
Do'stlik tumanidagi 8-maktab rahbari:

– O'quv dargohimiz «Istiqlol» jamoa xo'jaligida joylashgan. Maktabimiz katta emas. Lekin o'ziga yarasha fayz-u tarovati, halovati bilan go'zal.

«Tong yulduzi» gazetasini o'quvchilarim qo'lida ko'rib suyunaman. 2009-yilda ham gazetxonlarimiz safi yana-da ko'payishiga harakat qilaman.



«SHALOLA»NING GULLARI

Samarqanddagi hashamatli bir binoda iqtidorli, bilimga chanqoq talabalar tahsil olishadi. Bu azim va aziz dargohda 17 fakultet bo'lib, ularning har birida 400 dan ortiq talabalar bilim oladilar. Talabalar bilan o'quv dargohlari, ustozlari haqida suhbatlashsangiz, gap so'nggida: «Men Samarqand Davlat universiteti talabasi ekanligimdan faxrlanaman», deya g'ururlanib javob berishadi. Ana shunday talabalardan biri Manija Bahriyeva bilan universitetda bo'lib o'tgan uchrashuvda tanishib oldik. Manija o'zbek filologiyasi fakultetining 3-bosqich talabasi bo'lishi bilan birga, universitetda «Kamolot» YOIHning yetakchisi ham ekan. O'z ijodidan o'qib bergan she'ri uning ijodkorligidan dalolat berardi. Manijadan qiziqsinib ismining ma'nosini so'radik.

– Firdavsiyning «Shohnoma» asarida «Bejam va Manija» hikoyasini o'qigan onam menga bosh qahramon ismini qo'yganlar. Manija – gul ma'nosini anglatadi. Bu ism asosan Afg'onistonda ko'p uchraydi. Onamdagi adabiyotga bo'lgan muhabbat menga ham o'tgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, she'r yozish menga zavq bag'ishlaydi. Birgina men emas, fakultetimizdagi talabalarning barchasi adabiyot ixlosmandlari. O'zbek filologiyasi fakultetida tashkil etilgan «Shalola» ijodiy to'garagi a'zolari o'z ijodlari bilan katta yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Hattoki, fakultetimiz talabasi Zulxumor Ashurovaga «Zulfiyaxonim qizlari» laureati bo'lish nasib etdi.

Darhaqiqat, «Shalola» ijodiy to'garagida Manija va Zulxumor kabi iqtidorli talabalar bisyor ekan. Ana shunday noyob iste'dod sohibalarini «Shalola»ni chamanga aylantirayotgan «gul»larga qiyoslaydik. Niyatimiz, SamDUning «Shalola»siga ko'z tegmasin, uni chamanga aylantirayotgan «Gul»lar iforidan dunyo ahli bahramand bo'lsin.

BUYUK SHAHAR

«Samarqand sayqali ro'yi zaminas»,
Unga talpinaman har kun, har nafas.
Bog'larim, gullarim bir bor ko'rsangiz,
Kalon minorlardan bo'lasiz sarmast.

Tarix zarvarag'in sinchiklab ko'ring,
Gaplarimga shunda bo'lasiz iqror.
Samarqand shunchalar qadimiy, buyuk,
Unda bobolarim xoku poyi bor.

Iroda JAFAROVA,
Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 1-maktab o'quvchisi

Shafoat TO'RAYEVA,
Paxtakor tumanidagi 6- maktab rahbari:

– 43 yildan buyon o'qituvchiman. Maktabimizni o'z uyimizdek asraymiz. Dargohimizda gullar ko'p. Ularni o'quvchilarimizning o'zlari ko'paytirgan.

Bolajonlarni juda yaxshi ko'raman. Ular ham meni o'z onasi, buvisidek ardoqlashadi. Shu sababdanmi, o'quvchilarimning barchasi – 678 nafari men bilan bemalol sirlashadi.

«Tong yulduzi» gazetasi xodimlari bilan yaqindan uchrashish niyatidamiz. Chunki bolalarimiz bu gazetani sevib o'qishadi.

Qo'sh sahifani MA'MURA, FERUZA va GULYUZ tayyorladilar

Ana endi Qoramoshning holini tomosha qil...

Anvar OBIDJON

QARG'ANING HIKOYASI



Qag'-g'! Ishlar chatog'-g'! Qag'-g'! Qag'-g'-g'!!!

Hoy, ahvolimni so'rab nima qilasan? O'rgildim sendaqangi mehribondan. Nima, aytganim bilan yarim dardimni tortishib berarmiding?

Qag', qag'-g'! Voy, ablag'-g'! Biqinimni yediku bu ablah Qoramosh!

Mabodo, seniki emasmi o'sha yumdalog'ich maxluq? Haligi qora mushukni aytaman-da. Bu befarosatni avvallariyam yomon ko'rardim. Boya o'rikning shoxida qirov yalab o'tirsam, baraka topkur Laychavoy uni zing'illatganicha quvib o'tib qoldi.

Ana endi Qoramoshning holini tomosha qil, qo'rquvdan junlari tikkayib, ko'zlari ola-kula bo'p ketibdi. Oyog'i yerga tegmaydi. Shu qochishda qochib borib, o'zini bostirmaning ostiga urdi. Bostirmaning chetiga bir uyum xazon to'plab qo'yilgan, ivitib qo'yga berib turishadi-da. Qoramosh bora solib, xuddi o'sha xazonning ichiga kirib ketdi. Daraxtning shoxida kuzatib turibman!

Qarasam, Laychavoy garangsigan taxlitda ivirsib qoldi. Bu ishga shaxsan o'zim aralashmasam bo'lmaydigandek tuyuldi. Borib yaqinroqqa qo'ndim-u, go'yo hech nimadan xabarsizdek beparvo so'radim:

– Xo'-o'-sh... Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi, Laychavoy? – dedim.

– Mushukni quvib yurib, shu joyda yo'qotib qo'ydim, – deb akilladi Laychavoy. – O'sha xumparni tutib dumini yulmasam, it emasman, deb qasam ichganidim.

– Donolarning gapiga qaraganda, birov bilan o'chakishish umuman yaxshi emas, – deya gerdaydim men. – Ming afsuski, og'zingga qaltisroq so'z olib qo'yibsan. Endi «it» degan tabarruk nomni astoydil himoya qulog'ingga to'g'ri keladi. Binobarin, shunday ekan, sen pahlavonzoda...

Gapni ortiqcha cho'zganim Laychavoyga yoqmadi shekilli, so'zimni shartta bo'lib «Olimligingni yig'ishtir! Qoramosh qayerga berkinganini ko'rdingmi, yo'qmi?» deb irilladi.

– Ko'rishga-ku ko'rmadim-a, – dedim hanuz satanglanishni qo'ymay. – Lekin farosatni ishga soladigan bo'lsak, kalavaning uchini topmoq mumkindir. Ya'ni, Qoramosh kalamush emaski, kavakka kirib ketsa. Agarda aqlim pand bermasa, u xazonning ichiga berkingan bo'lmog'i ehtimoldan holi emas.

Hali gapimni tugatganim yo'q ediki, Qoramosh xazonning orasidan o'qdek sapchib chiqib ustimga otildi. Laychavoy ham, men ham o'zimizni o'nglashga ulgurmay qoldik. Battol mushuk: «Mana senga, chaqimchi!» dedi-yu, biqinimga bir tirnoq urib o'tib ketdi. Yulingan patlarimni to'zitib, zo'r-bazo'r havoga ko'tarildim. Laychavoy uni yana quvishga tushdi.

Voy, biqinginam-ey! O'rikning shoxida jimgina o'tiraversam bo'lmasmidi? Nima qilardim birovlarning ishiga aralashib? Boshqalarga o'zimni aqlli qilib ko'rsatgim keldimi deyman-da. Eh, pishmagan kalla!

...Chaqimchilik yomon narsa deysanmi? Aql o'rgatmoqchimisan, uka? Bor, yo'lingdan qolma. Farosat bilan aytganda, shaxsan menga dars berishga hali yoshlik qilasan. Qag'-g'!!!



SALIMNING TUSHI

Bugun Salim barvaqt uyg'ondi. Shosha-pisha choyini ichdi-da, onasining: «Hali vaqtli», degan gapiga qaramay, dadasi olib bergan yangi kiyimlarini kiyib, daftar va kundaligini sumkasiga sola boshladi.

Onasi: «Ketdik, o'g'lim», deganida, uydan o'qdek chiqdi. Endi ona-bola qo'ldan yetaklashib shaxdam qadamlar bilan keta boshlashdi.

Maktabda uni ustozi Nargiza opa qarshi oldi. Darslar ham boshlanib ketdi. Salim o'qish darsidan «5» baho olib, kundaligiga qo'ydirgach, xursand bo'ldi.

Sinfdosh do'sti Avazbek bilan qaytayotganida, unga olgan bahosini maqtanmoqchi bo'lib endi kundaligini olgan ham ediki, to'satdan Avaz shig'il meva tukkan anjirga tikilib qoldi.

– Uni qara, Salim! Kel, daraxtga chiqib, anjir yeymiz, – dedi Avaz ko'zlari o'ynab.

– Nima qilasan, qorovul chiqib qolsa, urishib o'tiradi, – dedi Salim rozi bo'lmay.

– Ha, qo'rqyapsanmi, unda pastda turib meni ko'tarasan, men olib tushaman, – dedi.

Shunday qilib, kelishib olishdi, kundalik ham, sumkalar ham yerga tashlanib, Salim Avazni ko'tardi. Avaz esa Salimning yelkasiga chiqib, daraxtga tirmashdi. Avaz endigina anjirga qo'li yetib uni uzmoqchi bo'lgan edi, to'satdan bog'ning orqasidan katta kuchuk yugurib kela boshladi. Salim qo'rqqanidan Avazni yelkasidan tushirib yubordi. Ular darhol sumkalarini olib qocha boshlashdi, lekin Salimning ko'zi yerdagi kundalikka tushib, uni ko'targan paytida it bir tarafidan tishlab oldi. Salim o'ziga tortar, it esa qo'yvormasdi. Salim bir qattiq tortganida, muvozanatni saqlay olmay yiqilib tushdi. Shu payt ko'zini ochsa, onasi uning tepasida kundalikni ushlab turibdi.

– Tur, o'g'lim, soat yetti bo'lyapti, maktabga chiqadigan vaqting bo'ldi, tezroq bo'l, nonushtangni tayyorlab qo'ydim, – dedi.

Salimning azbaroyi maktabga chiqqisi kelganidan buvijonisi olib bergan kundaligini quchoqlab uxlab qolgan ekan.

M.ZOHIDOV

JONIVORLAR DO'KONDA

Ayiqvoy osib ketdi
Daraxtga katta e'lon:
«O'rmondagi sayhonda
Ochildi superdo'kon».
Do'konchaga o'sha choq
Yetib keldi Mingoyoq.

Mingoyoq:

– Qishlik poyabzallarim
Eskirib qolgan chatoq.
Kalishdan mingta bering
Va yana mingta paypoq.

Zebra:

– Yo'l-yo'l po'stin ostida
Qiziyapti yuragim.
Balki sizda topilar
Dengizchilar ko'ylagi?!

Jirafa:

– Mehmon bo'lmoqchi edim
Arktika tomonga.
Yigirma metrli sharf
Topiladimi menga?

Fil:

– Men hali katta emas,
Kichkina fil bolaman.
Olti quti konfetni
Yesam, to'yib qolaman.

Xo'roz:

– Tomoqni shamollatib,
Qiynalib qoldik biroz.
Mikrofon – kuchaytirgich
Bersangiz, bo'lardi soz.

Timsoh:

– Tish yuvib tozalashga
Menga juda ekan bop.
Etik cho'tkadan bering,
Poroshokdan ikki qop.

Tipratikan:

– Tikanlarim yo'qolib,
Rosa jonim qiynagan.
Menga uzatvorsangiz
Ellik pachka ignaban.

Chumoli:

– Devori tayyor ekan,
Eshiklari ham qulay.
Bir quti gugurt bering,
Imorat qilib olay.

Xudoyberdi KOMILOV,
Samarqand viloyati

KASALLIKNI BAHONA QILMANG!

Orangizdagi ba'zi erka o'quvchilar kasal bo'lib qolganlarida, darslardan qutildim, deb xursand bo'lishadi. Lekin bu o'zlariga zarar bo'lib, darslardan qolib ketishlarini o'ylamaydilar.

Bir kuni 2-sinfda o'qiydigan Malika ham betob bo'lib, uyda qoldi. U qani endi shunday yotaversam, uy vazifalarini ham bajarmas edim, deb xayol qildi. Lekin dadasi unga tanbeh berdi. To'g'ri-da, axir uyda qolib ham ba'zi darslarni bajarish mumkin. Maktabda Malikaning sinfdoshlari kara jadvalini yodlashayotgan ekan. Shuning uchun dadasi uning ham jadvalni takrorlashni buyurdi. Shunday qilib, u ikki karadan boshlab bir hafta ichida butun kara jadvalini yodlab oldi. Davolanib bo'lgach, maktabga borganida esa sinfdoshlari endi olti karani o'rganishayotgan ekan. Ko'rdingizmi, bolalar, vaqtdan, hatto kasal yotganingizda ham unumli foydalanishingiz mumkin.

Mashhura RAHIMOVA,
O'z MU jurnalistika fakulteti talabasi

HAYVONOT BOG'IDA

Hayvonot bog'ida kichik ayiqcha bor edi. U doim qarsak chalib bolalarni quvontirardi. Har gal u ayiqchani ko'rgani borardim. Bir kuni hayvonot bog'iga borsam, negadir ayiqcha bir chetda xomush yotardi, keltirilgan yeguliklarga ham e'tibor qilmasdi. Hayratlandim. Buning sababini so'rasam, ayiqchani onasidan ajratib qo'yishgan ekanlar. U endi yolg'iz yashashni o'rganishini aytishdi. Ayiqcha bir ahvolda edi.Uning mustaqil hayot kechirishiga ko'nikishi qiyin kechdi. Hayvonlar ham xuddi insonlar kabi ona mehriga talpinib yashashini sezdim.

Maftuna TO'LQIN qizi

INSHOIM TURTKI BO'LDI

Men Chirchiq shahridagi 25-o'rta umumta'lim maktabining 4-«B» sinfida tahsil olaman. Yaqinda o'qituvchimiz Gulnoza opa «Mening orzuim» mavzusida insho yozdirdilar. Men kelajakda dizayner bo'lib, o'zbek milliy liboslarini zamonaviy ko'rinishda jahon xalqlariga tanishtirish niyatida ekanligimni yozgandim. Ustozim: «Sendan yaxshigina jurnalist chiqadigan ko'rinadi», deya inshoimni a'loga baholadilar. Ularning gaplarini buvijonim ham ma'qulladilar. Bu fikr menga juda yoqdi va hozirdanoq tengdoshlarim, sinfdoshlarim hayotiga oid jajji-jajji maqolalar yoza boshladim.

Maftuna BOTIROVA

BIRINCHI QOR

Birinchi qor yoqqan kun,
Zo'r bayram bo'lib ketdi.
Maktabimiz quchog'i,
Shodlikka to'lib ketdi.
Samolardan qor emas,
Go'yo momiq par yog'di.
Yurtimizning oshiga,
Oqlik, poklik, zar yog'di.
Tabiat go'yo ona,
Hammadan hol so'raydi.
Yalang'och daraxtlarni,
Oppoq to'nga o'raydi.



Shohidoyev Sholaziz Mohirjon o'g'li, Toshkent shahridagi 4-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi

MOHINA

Rasmdagi kulib turgan qizaloqning ismi Mohina Rahmonbekova. U Toshkent shahridagi 34-maktabning 2-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Jonivorlarni yaxshi ko'radi.

Tanaffus paytida ularga bag'ishlab mitti she'rlar yozib, quvnoq rasmlar chizib, sinfdoshlarini kuldirib o'tiradi.

Quyida ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilyapmiz:

Babalaydi qo'y,
Bu odating qo'y.
Mana senga o't,
Bir zumda yeb qo'y!

Siz bog'da bo'lganmisiz,
Maymunni ko'rganmisiz?
Qiliqlarin kuzatib,
Ahvolin so'rganmisiz?

Oxirgi domino toshidagi harflarni toping.

3	5	7	9
3	E	G	

Birinchi qator: A EF HI KLM
Ikkinchi qator: BCD G J
Nega harflar ikki qatorga ajratilgan?





Barcha tuxumlarga aniq bir son tegishli bo'lmog'i lozim. Har bir son o'z ostida joylashgan ikki son qiymatiga teng.

Rasmlardagi 8 ta farqni toping!





Umid KAMOLOV

Yo'lbars bilan bo'rini hech kim bog'lab boqmaydi, shuning uchun ularda shox yo'q...

«GULG'UNCHA»DEK UNGAN NAZOKAT

Qadrli o'quvchilar! Siz gazetamizda berilayotgan «Bugunning yangi avlodlari» sahifasini qiziqib o'qib borasiz. Undagi iqtidorli tengdoshlaringizga havas bilan qarashingizga shubhamiz yo'q.

Bugun esa sizga ularni yaqindan tanishtirib borayotgan sahifa muallifi opangiz Nazokatxon Tojiboyeva haqida to'xtalmoqchimiz.

Nazokatxon asli surxondaryolik. U Termiz akademik litseyida tahsil oldi. 6 yoshidan viloyat o'quvchilar ijodiyoti markazidagi «Gulg'uncha» ashula va raqs dastasiga qatnay boshladi. Shuningdek, viloyat teleradiokompaniyasida avval «Beg'ubor olam» (1998), so'ngra, «Kamalak» (2002) ko'rsatuvlari boshlovchisi, «Bilasizmi, bolalar?» (2003), «Umid yulduzlari» (2005) bolalar va o'smirlar ko'rsatuvlari, «Zukkolar bahsi» inlellektual teleo'yini muallifi sifatida faoliyat yuritdi.

2003-yilda Nazokat «Yoshlar» teleradiokanali «Yangi avlod» studiyasi tomonidan «TV jurnalisti» sertifikati bilan taqdirlandi. Bugungi kunda Nazokatxon O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ingliz filologiya fakultetining uchinchi bosqich talabasi. O'qishning ilk kunlaridanoq u o'zining iste'dodini, iqtidorini namoyon eta oldi.

Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan Respublika insholar tanlovida ishtirok etib, g'olib bo'ldi. «Osiyo taronalari» xalqaro bolalar festivalida viloyat bosqichi g'olibligini qo'lga kiritdi.

2008-yil Nazokatxon uchun omadli va unutilmas yil bo'ldi. U «Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi» sovrindori bo'ldi. O'z ustida tinimsiz izlanayotgan Nazokat «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» va «Mehr nuri» jamg'armalari hamkorligidagi «Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar» (2008-2009) dasturi g'olibasi bo'ldi.

U 40 dan ortiq publitsistik va bir nechta ilmiy maqolalar muallifidir.

O'zi tahsil olayotgan Oliygoh iqtidorli talabalar safini kengaytirish va ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida, universitet ma'muriyatiga – «Umid yulduzlari» klubini tashkil etish loyihasini taqdim etdi, uning bu loyihasi amalga oshib, ayni damda Nazokat Tojiboyeva loyiha rahbari sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.Uning yana bir orzusi Prezident stipendiyasi sovrindori bo'lish. Nazokat kelajakda o'zi tanlagan kasbning mutaxassisi bo'lish uchun tinmay izlanmoqda.

Aziz o'quvchilar, Nazokat opangiz kabi iste'dodli, izlanuvchan va intiluvchan yoshlarga havas qiling, o'rganing va ergashing. Ular safini kengaytiring.

Feruza SOYIBJON qizi

FOTOSURATLAR TANLOVIGA

Bolalarning qalbi beg'ubor, Unda jajji orzulari bor!

BO'YI O'SMAY QOLGAN BOLALAR

Bolalar bir-uch yoshlar orasida mustaqil ravishda yura oladi va katta yoshdagi odamlar yeydigan ovqatlar bilan ovqatlanadi. Ularning nutqi ham tez rivojlanadi, nutq bilan birga tafakkuri ham o'sadi. Endi bola hammavaqt uning oldida onasi bo'lishiga ehtiyoj sezmaydi, ammo shunday bo'lsa-da, bunday bolalarni doim kuzatib va parvarish qilib turish zarur bo'ladi.

Ayniqsa, bog'cha yoshdagi bolalarda (3 yoshdan 7 yoshgacha) tevarak-atrofdagi olam to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar to'planadi. Ularning xossalarini tobora aniqroq farq qila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning fantaziyasi ham rivojlanadi. Agar tarbiyachilar bolalardagi bu fantaziyani oqilona yo'nalishiga solib yuborsalar, u borib-borib mehnatga ijobiy munosabatda bo'ladi, qobiliyati, iste'dodi o'sib boradi.

Tevarak-atrofdagi olamni bilish va bolalar fantaziyasini rivojlantirishda o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin bolaning faqat aqliy toifadagina emas, balki jismoniy toifadan ham rivojlanishiga katta yordam beradi. Go'shtdor bolalarni bog'chalarida tarbiyachilar serharakat o'yinlarga jalb qiladilar, chunki bunday mashg'ulotlar bola organizmini rivojlantiradi va sog'lomlashtiradi. Ochiq havoda sayr qilib yurish bolalarni chiniqtirishga katta yordam beradi.

Chiniqqan bola gripp, shamollash, angina kabi kasalliklarni yengil o'tkazadi, chunki uning organizmi ushbu kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarning harakati tobora bir-biriga moslashib boradi, ularning nutqi hamda tafakkuri tez rivojlanadi. Bolalarning jismoniy va jinsiy o'sishida o'z vaqtida, ratsional ovqatlanish, vitaminlarga boy sabzavot, ko'katlarni ovqatga qo'shib iste'mol qilish muhim ahamiyatga ega.

Tohir IBRAGIMOV, tibbiyot fanlari doktori

UZOQ YASHASH UCHUN...

Olimlarning fikricha, inson 120 yil umr ko'rishi mumkin ekan. Lekin odamning umri 120 yilni tashkil qilishi qiyin holatdir. Bunday bo'lishiga sabab insonlarning kam harakat qilishidir. Yurak faoliyatining yaxshi ishlashi uchun ham doimo harakatda bo'lishi kerak. Yurakning sog'lom bo'lishi uchun ko'proq jismoniy mehnat yoki badantarbiya bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqdir.

O'ylab, bizib!

XANDALAR

JUMBOQ

– Qiziq, – dedi o'ylanib o'tirib besh yoshli Aziz, – sigir bilan echkining shoxi bor-u, bo'ri bilan yo'lbarsniki yo'q.

– Shuniyam bilmaysanmi? – dedi bilag'onlik qilib Dilshod. – Echki bilan bog'lab boqishayotganda, chiqib ketmasligi uchun bo'ladi. Yo'lbars bilan hech kim bog'lab shuning uchun ularda shox sigirni arg'amchi shoxi kerak bo'rini esa boqmaydi, yo'q.

RANGI O'CHMAS EKAN

To'rt yoshli Akrom akvariumdagi rangli baliqni ko'rib dedi:

– Qaranglar, suvda yursa ham rangi o'chmas ekan-a!

Tong YULDUZI
Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi: Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi: Axtamqul KARIM

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom: Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 20975
Buyurtma N: J 6377